

SAIDA ZUNUNOVA CHIN MUHABBAT VA SADOQAT TIMSOLI

<https://doi.org/10.5281/zenodo.17850919>

Ashurova Gavhar Sayfullayevna

Buxoro innovatsion ta'lim va tibbiyot universiteti 1- bosqich magistranti

Annotatsiya

Maqolada o'zbek xalqining suyukli qizi ,iste'dodli shoira, jozibali nasriy asarlar muallifi Saida Zunnunovaning mashaqqatli umr yo'liga nazar tashlanadi."Xalq dushmani ayoli" Saida Zununovani uyushma a'zolidan chetlatilishidagi holatlar hamda istiqlol yillaridagi adibaning umr yo'li , qatag'on yillarining shoira taqdiriga ko'rsatgan ta'siri, uning matonati, ijtimoiy-siyosiy bosimlar davrida ko'rsatgan sadoqati hamda Said Ahmad xotiralari asosidagi ma'lumotlar izchil yoritilgan. Shuningdek, mustaqillikdan keyingi adabiy jarayonda Zunnunova merosining qayta baholanishi ham ko'rib chiqiladi.

Kalit so'zlar

inson ruhiyati, zamondosh obrazi ,vatanparvar obrazi, davr fojiasi qatag'on yillari ,erksizlik ,inson sha'ni .

**Vaslingning umidida dunyodan o'tib borgum,
Qanoatda Saida filcha bo'lurmi, hay-hay.**

Kirish: O'zbek adabiyotida ayol ruhiyatini nozik sezgi, samimiy lirika va falsafiy mushohadalar orqali badiiy talqin eta olgan ijodkorlar bisyor. Shulardan biri – Saida Zununova. U XX asr o'zbek she'riyatida ayolning ijtimoiy mavqei, ma'naviy olami, muhabbat va sadoqatga doir qarashlarini o'ta samimiy va ta'sirchan tarzda ifodalagan ijodkor sifatida alohida e'tirof ega. Zununovaning she'rlarida ayol qismati, insoniy tuyg'ular olami, mehr va fidoyilik tushunchalari poetik markazga chiqariladi. Shuning uchun ham u "muhabbat va sadoqat timsoli" sifatida adabiyotshunoslar tomonidan munosib baholanadi.Xalqimizning sevimli yozuvchisi "Hurmat belgisi" ordeni sohibasi iste'dodli shoira milliy adabiyotimiz uchun ulkan ma'naviy meros qoldirdi.Hayot yo'li mashaqqatlarga to'la bo'lgan ijodkor xotin- qizlar uchun ibrat maktabi bo'la oladi.Ijodkor o'z asarlarida o'sha qatag'onlik yillarining murakkab holatlarini ,ruhiy kechinmalar dard -alamlari haqida yozadi va buni o'quvchiga ham yuqtira oladi. Shoira umrining murakkab tarixiy sharoitlari: Ikkinchi jahon urushi yillari, undan keyingi siyosiy tazyiqlar, qatag'on va noroziliklar uning ijodiy shakllanishiga sezilarli ta'sir ko'rsatgan. Bu

maqolada Zunnunovaning hayoti, ijodi va adabiyotdagi o'рни ilmiy manbalar asosida tahlil qilinadi.

Asosiy qism :

Ayollar borki, hayot go'zal va yorug' bo'laveradi. Ular bilan uylar nurga va mehrga, qalblar esa sevgi va muhabbatga to'ladi. Go'zal xilqat egalarini har qancha ulug'lasak, boshimizga ko'tarsak kam. Ayollardek buyuk mo'jizani, xushsurat 121 xilqatni, pokiza qalbni yana qaydan topish mumkin? Bugungi kun ayol-qizlari har tarafdin ilg'or, chaqqon va shuning bilan birga sportchi, tikuvchi, shifokor, o'qituvchi, tarbiyachi, san'atkor, quruvchi va mexanizator ayollardir. Shunday ayollaimizdan biri Saida Zunnunovaning mashaqqatli va zalvorli umr yo 'liga bir nazar tashlaymiz.

Iste'dodli shoira, mazmunli nasriy va nazmiy asarlar muallifi Saida Zunnunova 1926-yili Andijon shahrida xizmatchi oilasida dunyoga keldi.

Otadan erta yetim qolgan shoira onasi va qarindoshlari qo'lida ulg'aydi, kamol topdi Andijon shahridagi 30-maktabni tugatgach, 1941-1943-yillarda Andijon o'qituvchilar institutida o'qidi. Bir muddat maktabda muallimlik qildi, viloyat gazetasi redaksiyasida ishladi. Shoira muhabbatni ko'pincha fidoyilik, poklik, kurash, umid, kabi tushunchalar bilan bir qatorda tilga oladi. Uning talqinida muhabbat insonni o'zini kashf etishga undaydi, ruhiy jihatdan barkamollikka olib boradi. "Sevgi — hayotning eng mo'jaz mo'jizasi" degan g'oya uning ko'plab she'rlarida seziladi. Zunnunova lirikasida ayol obrazlari soddalashtirilmagan; aksincha ularning ichki kechinmalari, qo'rquv va umidlari, jamiyatga munosabati, tashqi bosimlar ostidagi ruhiy kurashimukammal psixologik tahlil bilan tasvirlanadi. Bu jihat shoirani o'zbek ayol lirikasining yetakchi vakillaridan biriga aylantiradi. Saida Zunnunovaning ilk ijod namunasi 1945-yili "Paxta fronti" gazetasida bosilgan. Bu she'riy top'lamga ustoz G'afur G'ulom nom qo'yib berganini quyidagicha xotirlaydi

-«Saidaning birinchi kitobini o'qib, «Qizingiz yozdi» (1948-yil) deb nom qo'yib berganman, Xalqimizning Saidaga qilgan yaxshi niyati bekor ketmadi. U xotin-qizlarga xos nazokat, iforli, tatimli lirikasi bilan dillarimizni erkalab, hordiqalarimizni yozib, mehnatga rag'batlarimizni toblantiradigan, idrokimizni go'zalliklar tomon yetaklaydigan fahmli shoiramiz bo'lib yetishdi». Adabiyotda muhabbat yosh shoirani O'rta Osiyo Davlat universiteti (hozirgi O'zbekiston Milliy universitet)ning filologiya fakultetiga yetakladi. U o'qishni tamomlab, "Gulxan" jurnali, "O'zbekiston madaniyati" gazetasi va Badiiy adabiyot nashriyotida, shuningdek, O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasida maslahatchi bo'lib xizmat qildi. Saida Zunnunova ayni kamolot yoshida 1977-yili og'ir xastalikdan keyin vafot etgan.

U yozuvchi Said Ahmadning sevimli rafiqasi edi. Ularning yolg'iz qizlari va nabiralari bor. Shoiraning vatan shukuhini yoshlik sururini va mehnat nashidasini aks ettiruvchi "Qizingiz yozdi" (1948), "Yangi she'rlar" (1950), "Gullar vodiysi" (1954), "Qizlarjon", "Bir yil o'ylari" (1967) nomli she'riy to'plamlari kitobxonlar tomonidan katta quvonch bilan qabul qilinib sevib o'qilmoqda. Saida Zunnunova nasrda ham sermahsul ijod etgan adibadir. Ijodkorning asarlarida yuqorida ta'kidlaganimdek inson hayoti hissiy tuyg'ular asosiy o'rin egallaydi. Jumladan; "Gulbahor" hikoyalar to'plamida (1956) ishchilar hayoti, muhabbat va oila mavzulari yoritilgan bo'lsa, "Gulxan" (1958) qissasining bosh qahramoni xotin - qizlar bo'lib, ularning yigirmanchi yillardagi kurashi o'ziga xos ravishda ifodalangan. Adiba yozgan "Olov" (1962), "Bo'ylaringdan o'rgilay" (1972), "Direktor" kabi asarlarining qahramonlari ham ayollardir.

Biz Saida Zunnunova haqida so'z yuritar ekanmiz ma'lumotlarning ko'p qismini adibimiz Said Ahmadning "Yo'qotganlarim va topganlarim" nomli asarining "Yo'qotganlarim" qismidan o'qiymiz. Ularning ilk uchrashuvlari quyidagicha boshlangan edi. Said Ahmadning xotiralaridan: "Men Katta Farg'ona kanali qurilishi davrida Yoshlar gazetasida muxbir bo'lib ishlardim. Bir kuni andijonlik yosh shoira Saida Zunnunova bilan uchrashib qoldik. U mendan bir nechta kitob so'radi. Menda ular yo'q edi, lekin do'stimdan oldim va Saidaga berib yubordim. Kitoblar shu bo'yi unda qolib ketdi... Oradan bir qancha vaqt o'tgach, uyimdagilar Saidaning yaqinlari bilan ko'rishishdi va to'yimiz 1949 yilning 28 noyabr sanasiga belgilandi..."

Biroq, ularning baxti uzoqqa cho'zilmadi. Said Ahmadning eslashicha, juda og'ir kunlarni boshdan kechirgan kezlari Saida opa ko'pincha bir narsani takrorlar edi: "Aftidan, men mashaqqatlarni ko'tarish uchun yaralganman..." Va hatto, to'y kuni ham oqshom ko'ylagini aza ko'ylagiga almashtirgan: 1949 yilning 28 noyabr kuni kelinning suyukli ukasi Nasibjon 17 yoshida vafot etadi. Va uning onasi Sabohatxon aya qizining to'yida davron surish o'rniga, Andijonga, o'g'lining dafn marosimini o'tkazish uchun qaytib keladi.

Shoira uyini va farzandini sevadigan o'zbek ayoli edi. Buni Said Ahmad quyidagicha xotirlaydi. "Saidaxon uyim-joyim deydigan ayollardan edi. Qay yurtga bormasin bir kundayoq uyini sog'inib qolar edi" 3 [175-bet]. Ijodkor og'ir hastalanib qolganda unga amallab dam olishga bilek qilib berganlarida ham onaizor o'zini emas 3yoshli jajji qizini o'ylab poyezddan tushib qoladi. Bu xususiyatlar o'zbek ayollariga xosdir. Uyiga qaytgan ayol eshikni ochgan turmush o'rtog'iga jilmayib "Men kurortlarda dam olishga, dengiz bo'ylarida sayru-sayohat qilishga o'rganmaganman. Har qancha dardim bo'lsa shu qizimni bir marta bag'rimga bossam sog'ayib ketaman" 3 [176-bet]

Shoiraga turmush o'rtog'i ijod qilish uchun sovg'a qilgan blaknotlarga avvaliga ijod namunalarini yozsa keyinchalik bozor -o'charga tushganda qilingan xarajatlar hisobi yozilar ekan. Bunga eri xafa bo'lib -nega bunday qildingiz?- degan savolga jimga yerga boqqan holda sizning peshona teringiz bilan erishgan pulingizni ishlatishga xijolat bo'laman umrimda birovning pulini ishlatmaganmanderdi sekingina. Sababi , otasidan erta yetim qolgan Saida onasi bilan bir etak ukalarini boqishga majbur edi. Shunday bo'lsada adabiyotdan aslo uzoqlashmadi , kitob mutolaa qilishdan to'xtamadi. Hayot uni erta ulg'aytirdi.

Said Ahmad "Yo'qotganlarim va topganlarim" asarining "Shoiraning Feruza olami" qismida shunday yozadi: "Yigirma yetti yil tiriklikning goh nurli , goh nursiz yo'llarida birga hamroh bo'lgan birgina qizini kelinlik libosida ko'rolmay ,yor-yorini eshitmay yetdim deganda yiqilgan qadrdon kimsa tushimga kiradi. Javonlarni to'ldirgan kitoblarning qatidan chiqib ko'rmagan nevaralari boshida turib tong ortdiradi. "3 [174-bet].

Ijodkor tomonidan yozilgan ,afsuski ancha keyin topib olingan xatni o'qish jarayonida bu ayolning sadoqati va chidamiga yana bir bor tasannolar aytasiz. "Menga yetib kelmagan xat " Muallif yozadi :Ellik to'rtinchi yili Saidaxonidan xat oldim. Unda avval ham xat yuborganligini aytgan edi. saidaxon aytgan o'sha xat menga yetib kelmagandi. "Boshimdan o'tgan savdolar" deganidan xat yetib kelmagani ayon bo'ldi. Oradan qirq to'rt yil o'tgandab keyin o'sha xatning qoralamasini kitoplarning qatidan topib oladi. Ushbu xatda bir sadoqatli ayolning qatag'onlik davridagi chekkan azoblari tasvirlangan edi. Turmush o'rtog'i aybsiz aybdor bo'lib qamalغان va undan eridan voz kechsagina uyushma a'zoliciga ishga qolishiga ruxsat berishini shart qilib qo'yishadi. Bundan xafa bo'lgan ijodkor majlisdan chiqib ketadi va uyushma guvohnomasini esa uyushmaning kadrlar bo'limiga yuboradi. Shu vaqtlar shoira uchun juda qiyin bo'lganligini o'z xatida quyidagicha yozadi.

"...Men uchun hamma eshiklar bekilgan. Radio, gazeta, jurnallar, nashriyotlarga yo'l yoq edi. Yozganlarimni redaksiyalar olmaydi. Radioda bittagina "Kokiling" degan qo'shig'imni ba'zan eshittirib turishar edi. U ham to'xtadi. Ro'zg'orning tagi ko'rinib qolgan qaynona kelin bir- birimizga qarab mung'ayib o'tiramiz. Biror joyga ish so'rab boray desam hamma eshiklar yopiq. Nima qilishimni bilmayman. O'lab -o'ylab 15yoshga to'lgan davrimda dadam sovg'a qilgan tilla soatimni sotib bir eski mashinkasini oldim. "[309-bet] Matonatli ayol endi nashriyotdagi mashinistkalalardan qo'lyozmalalar olib ro'zg'orini tebrata boshladi. bir qismini esa surgunda yurgan eri uchun u-bu narsalarga top'lar edi. Uning mushtipar qaynonasi esa saharda turib ollohga nola qilardi"...Ey xudoyim shu musofirginani o'zing qo'lla !Shu farishtaginaga tikilganlarning

yuzini teskari qil! Bola bechora kelin bo'lib nima halovat ko'rdi...Kelin bo'lib yayrab- yashnamadi....Ro'shnolik ko'rsin shu bolaginam..."³ [310-bet]. Bu so'zlar o'quvchini chuqur o'ylantiradi. Shunday mehribon sadoqatli ayollarimiz poyiga tiz cho'ksak arziydi.

Taniqli tanqidchi, adabiyotshunos olim Ibrohim G'ofurov Saida Zununova haqida quyidagilarni yozadi: "Saidaning boshiga o'shanda Saidnikidan kam bo'lmagan mushkul ish tushdi. Uni uyushma kotibiyatiga chiqarib "Xalq dushmani" Saiddan voz kechishni talab qildilar. O'shqirdilar. Do'q-po'pisalar yog'dirdilar. Yosh bo'lsa ham ikki oliy institutni tugatgan, tahsil ko'rgan, toshdan qattiq bardoshli qiz edi. O'rtaga olib qistadilar. Voz kechmadi. Shunda ma'lum bo'ldi: hech qanday kuch uni voz kechishga majbur qila olmasdi. Yo'q u Saida bo'lgani uchungina emas. Uning degani, tanlagani, taqdiriga qo'shgani Said bo'lgani uchun ham u hech qachon voz kechmas edi. Uzoq yillar o'tgandan so'ng, hatto Saida ham dorulbayoqoga ko'chgandan so'ng Said bu haqida yozdi. Yig'lab-yig'lab, jigari xun bo'lib yozdi. Yillar yuragi tubida yotgan armoni, alam, muhabbatini qog'oz sahifalariga to'kdi. Uning Saida haqidagi xotiralarini Saidning eng go'zal go'zal dostoni, o'lmas taronasi deyish mumkin.[1]

1954 yillarning o'rtalarida shoiradan ham ayblovlar olib tashlangandan keyin uning ijodida sekin-sekin bir-biridan go'zal ijod namunlari nashr qilina boshlaydi.

Said Ahmadning xotirasidan: "Saida ish stoli ustida biror narsa yozganini eslay olmayman. U bir qo'li bilan qozonda ovqat pishirishi, boshqa qo'lida she'r yozishi mumkin edi yoki bir qo'lida beshik tebratib, tizzisiga daftar qo'ygancha, yozardi va yozardi...Uyda bir emas, uchta yozuv stoli bor edi, u esa duch kelgan yerda yozib ketardi - to deraza ostida yoki dazmol stolida. Ba'zi she'rlarini u oynoma muqovasida yozishni boshlagan va telefon daftarida davom ettirgan. So'ngra, ularni barini to'plab, ikki nusxada bosma moshinada terib chiqqan". Yozuvchining o'zi esa faqat kechasi ijod qilgan.

Saida Zunnunova gullagan jiyda iforini yaxshi ko'rgan. Said Ahmadning xotiralaridan: "Jiyda gullaganida, uyimizdan uch hovli narida biz har kecha sayrga chiqardik, uning ifori esa butun ko'chani egallardi. Bizga boshqa qo'shni ayollar ham qo'shilishdi va hammamiz birgalikda jiyda daraxti tagida o'tirardik. Uyga kirishdan oldin bir dona xushbo'y jiyda shoxini yulib kirib, suv solingan bonkaga qo'yar edik. Butun hovlimiz uning ifori bilan burkanardi. Bunday kunlar Saidaxon yarim tungacha, qo'lida biror kitob bilan hovlida o'tirar edi, so'ngra, qo'lga daftar olib, she'r yozishni boshlardi. Uning ko'p she'rlari aynan jiyda gullagan davrga to'g'ri keladi".

Jiyda gulining umri qisqa. Bir necha kunga atrofni o'zining muattar ifori ila to'yintirib, bu dunyoni "tark etadi". Uning iforiga to'ymay, Saidaxon ham keyingi bahorni kuta, "ungacha yetib boramanmi?", deya yashadi.

Jiyda gullaganda Saidaxon olamdan ko'z yumgandi... Bir oydan so'ng gullagan jiyda shoxini yuldim va uning qabri ustiga qo'ydim". Saida Zunnunova 1977 yil 51 yoshni qarshi olib, dunyodan ko'z yumdi.

Xulosa

Said Ahmaddan rafiqasining o'limidan so'ng ko'pincha: "Nima uchun siz Saida opaning o'limidan so'ng uylanmadingiz?", deya ko'p so'rashardi. Said aka: "Men uning oldiga yorug' yuz bilan bormoqchiman", deya javob berardi. Yozuvchi rafiqasidan 30 yil ko'proq umr ko'rdi! Axir, qachonlardir Saida opa ham erini qamashgan vaqti sadoqatini namoyon etgan. Saida o'sha tunlari yillar Saidni kutdi. Izlaridan yurdi. Tazyiqlar, ta'qiblar, xo'rliklarning hammasiga bardosh bilan chidadi. Saidani taqdir kutish va bardosh uchun yaratganga o'xshardi. Uzundan-uzoq romanlar, tarjimalarni uyqusiz tunlar, qutsiz kunlar o'tirib mashinkaladi. Shunda mehnatni haloskor deb bildi. Barcha she'rlari, dostonlarini tuganmas mehnat ichra o'zini o'zi yaratgan va tuganmas mehnat yutib chiqqan odamlarning va ayniqsa xotin-qizlarning qo'shig'i kabi yaratdi. Mana, oradan yillar o'tdi. Bugun davralarda Saida Zununova yoq. Lekin uning yodi qalblarda barhayot. Nozik nidolari, dilbar, noyob istioralari hamon she'riyat muxlislarini hayratga solib kelmoqda. Ishqning o'ynoqi havolariga to'lgan ijod namunalari to'y-hashamlarda hofizlar tilidan tushmaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Иброҳим Ғофуров. "Саид Аҳмад ва Саида" Саида Зуннунова Танланган асарлар. Т., "Шарқ", 2001 йил. 6-7-бетлар.
2. С.Зуннунова Танланган асарлар. Т., 1976, 1-жилд.
3. Саид Аҳмад «Йўқотганларим ва топганларим. Т., "Шарқ", 1999.
4. Саид Аҳмад. Танланган асарлар. Т., "Шарқ", 2000, 3-жилд
5. <https://arboblar.uz/uz/people/zunnunova-saida>
6. <https://uzkimyosanoat.uz/oz/manaviyat/ajdodlarga-ehtirom/saida-zunnunova>